ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

TIBBIYOT SOHASIGA OID FAZOVIY MA'LUMOTLARNING IMKONIYATLARI VA AMALIY AHAMIYATI

Allaberganov Navruzbek Allaberganovich

Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi, Sog'liqni saqlash vazirligi boshqarma boshlig'i o'rinbosari navruzgis@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada tibbiyot sohasida fazoviy (geolokatsion) ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatlari, ularning sog'liqni saqlash tizimidagi ahamiyati, epidemiologik monitoring, tibbiy infratuzilmaning joylashuvi va xizmatlardan foydalanish bo'yicha tahlil imkoniyatlari yoritiladi. Zamonaviy GIS (Geographic Information System) texnologiyalarining tibbiy qarorlarni qabul qilishda tutgan o'rni alohida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: fazoviy ma'lumotlar, tibbiyot, GIS, epidemiya, infratuzilma, sog'liqni saqlash, sun'iy yo'ldosh.

Аннотация: В данной статье рассматриваются возможности использования пространственных (геолокационных) данных в медицине, их значение в системе здравоохранения, эпидемиологическом мониторинге, размещении медицинской инфраструктуры и возможностях анализа использования услуг. Отдельно рассматривается роль современных технологий ГИС (географической информационной системы) в принятии медицинских решений.

Ключевые слова: пространственные данные, медицина, ГИС, эпидемия, инфраструктура, здравоохранение, спутник.

Abstract: This article discusses the possibilities of using spatial (geolocation) data in medicine, their importance in the healthcare system, epidemiological monitoring, the location of medical infrastructure and the possibilities of analyzing the use of services. The role of modern GIS (Geographic Information System) technologies in medical decision-making is considered separately.

Keywords: spatial data, medicine, GIS, epidemic, infrastructure, healthcare, satellite.

So'nggi yillarda tibbiyot sohasida texnologik innovatsiyalar, xususan fazoviy ma'lumotlar texnologiyalari (GIS, GPS, sun'iy yo'ldosh kuzatuvlari) keng qo'llanilmoqda. Ular orqali sog'liqni saqlash infratuzilmasining holati, tibbiy xizmatlarga kirish imkoniyati, epidemiyalarning tarqalishini kuzatish kabi masalalarda keng qamrovli tahlillar amalga oshirilmoqda.

Fazoviy ma'lumotlar va geografik axborot tizimlarining (keyingi o'rinlarda – GAT) zamonaviy ilmiy va amaliyotda ahamiyatli yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Fazoviy ma'lumotlar turli geografik ob'ektlar va ularning atrofidagi hodisalarga oid ma'lumotlarni qamrab oladi, bu esa turli sohalarda, jumladan, muhandislik, ekologiya, transport va shahar planlashtirishda hamda tibbiyotda keng qo'llaniladi. GAT texnologiyalari fazoviy ma'lumotlarni tahlil qilish, ularni qayta ishlash va amaliy qarorlar qabul qilishda muhim rol o'ynaydi. Bu maqolada fazoviy ma'lumotlar va GAT texnologiyalarining ilmiy va amaliy masalalari tahlil qilinadi.

Maqoladagi tahlillar uchun asosan ilmiy adabiyotlar, zamonaviy tadqiqotlar, GAT texnologiyalarini ishlab chiqish va ularning real sohada qo'llanilishiga oid ma'lumotlar asosida tizimli tahlil amalga oshirildi. Bundan tashqari, GATning zamonaviy dasturiy ta'minotlari va ularning turli sohalardagi amaliyotga tatbiq etilgan holatlarini o'rganishga ham alohida e'tibor qaratildi.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

Fazoviy ma'lumotlar — bu muayyan obyekt yoki hodisaning yer ustidagi joylashuv koordinatalari bilan bog'liq ma'lumotlardir. Bunday ma'lumotlar quyidagi manbalardan olinadi:

- Sun'iy yo'ldosh tasvirlari;
- Dron (BLA) orqali yig'ilgan ma'lumotlar;
- GIS platformalar (ArcGIS, QGIS, GeoDA);
- GPS qurilmalari;
- sog'liqni saqlash muassasalarining joylashuv ma'lumotlari;
- koordinatalar bilan bog'langan inson salomatligiga oid ma'lumotlar.

Fazoviy ma'lumotlar yordamida qanday geografik ob'ekt va hodisalarning hududdagi o'rni, xususan, koordinatalar, yerning turi, ob-havo sharoiti, ekologiyaviy holat va hokazolar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish imkoniyati yaratiladi. Mazkur ma'lumotlar tezkor va aniq qarorlar qabul qilish uchun juda muhimdir.

GAT texnologiyalari – GAT, ya'ni geoaxborot texnologiyalar, fazoviy ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, tahlil qilish va vizualizatsiya qilishning zamonaviy usullarini o'z ichiga oladi. GATning eng mashhur texnologiyalaridan biri GIS (Geographic Information Systems) hisoblanadi, bu tizimlar geografik ma'lumotlarni taqsimlash va tahlil qilish imkonini beradi.

Tibbiyot sohasida, tibbiy infratuzilma tahlili, epidemiologik monitoring, ekologik va inson salomatligi va boshqalar. Tibbiyot sohasi davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan eng yirik ijtimoiy sohalardan sanalishini inobatga olib, ko'rsatiladigan tibbiy xizmat va dori vositalari hamda sarflov vositalarining ham faoziy ma'lumotlarini yuritish dolzarb sanaladi.

Transport va logistika, GAT texnologiyalari transport yo'nalishlarini optimallashtirish, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash va yangiliklarni amaliyotda joriy etishga qaratilgan.

Tibbiyotda fazoviy ma'lumotlardan asosiy foydalanish yo'nalishlaridan:

Epidemiologik monitoring:

- yuqumli kasalliklarning fazoviy tarqalishini kuzatish (masalan: COVID-19, bezgak);
- qanday hududlar ko'proq kasallikka chalinayotgani aniqlanadi;
- vaqt va fazo bo'yicha "hotspot"lar xaritasi tuziladi.

Tibbiy infratuzilma tahlili:

- Kasalxonalar, poliklinikalar, dorixonalarning fazoviy joylashuvi;
- Aholi zichligiga nisbatan tibbiy xizmatlar taqsimoti;
- Tibbiy transport yo'llarining optimallashtirilishi.

Ekologik salomatlik:

- Havo sifati, suv ifloslanishi, sanoat chiqindilari bilan bog'liq kasalliklar geografiyasi;
- Rak, astma, yurak-qon tomir kasalliklarining ekologik zonalarga bog'liqligi.

Favqulodda vaziyatlar:

- Zilzila, suv toshqini kabi tabiiy ofatlarda tibbiy yordam koordinatsiyasi;
- Tez yordam xizmatining eng yaqin va samarali marshrutini aniqlash.

Barcha yo'nalishlarni uzviy bog'lashda ham fazoviy ma'lumotlardan foydalanish va GAT texnologiyalarini qo'llash bugungi kunda dolzarb sanaladi.

Amaliy misollar:

- COVID-19 pandemiyasi davrida ko'plab mamlakatlar GIS texnologiyalari yordamida kasallik tarqalishini real vaqt rejimida xaritalashdi.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

• O‘zbekistonda “Sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish” dasturlari doirasida aholi yurish marshrutlarini fazoviy tahlil qilish yo‘lga qo‘yilgan.

Muammolar va hal etilish yo‘llari:

Ma’lumotlarning aniqligi va yangilanishi, ba’zi hollarda fazoviy ma’lumotlar aniq va to‘g‘ri bo‘lmasligi mumkin, shuning uchun ma’lumotlarning to‘g‘riligi va yangilanishiga alohida e’tibor qaratish kerak. Ma’lumotlar bazasini doimiy ravishda yangilash va sifatini nazorat qilish muhim.

GAT texnologiyalarining qimmatligi, GATning yuqori sifatli dasturiy ta’minotlari va ularni ishlab chiqish, hamda amalga oshirish qimmat bo‘lishi mumkin. Buni hal qilish uchun samarali ta’lim va trening dasturlari, hamda davlat yoki xususiy sektordan ko‘mak olish kerak.

Ma’lumotlar integratsiyasining muammolari, turli manbalardan olingan fazoviy ma’lumotlarni birlashtirish va integratsiya qilishda turli texnik muammolar yuzaga kelishi mumkin. Bunday muammolarni hal qilish uchun standartlashtirish va geoaxborot tizimini yaratish kerak.

Fazoviy ma’lumotlar va GAT texnologiyalari keng yoyilgan va turli sohalarda juda foydalidir. Tahlillardan kelib chiqib, tibbiyot sohasida GAT sohasida mutaxassislar va yangi kadrlar tayyorlash va ularni zamonaviy texnologiyalar bilan ishlashga yo‘naltirish kerak.

Innovatsion dasturlar va platformalarni ishlab chiqish, GATning yangi imkoniyatlaridan foydalanish uchun tibbiyot sohasiga oid fazoviy ma’lumotlar strukturasi, ularni yuritish tartibi va geoportalini ishlab chiqishga e’tibor qaratish zarur.

Bunda, texnik va metodik standartlarni ishlab chiqish, fazoviy ma’lumotlarning aniqligi va sifatini ta’minlash uchun umumiy standartlar talab etiladi.

Fazoviy ma’lumotlar va GAT texnologiyalari zamonaviy ilmiy tadqiqotlar va amaliyotda muhim rol o‘ynaydi. Ular turli sohalarda, jumladan, tibbiyotda katta ahamiyatga ega. Ushbu texnologiyalarning yangi talablarga moslashishi va muammolarini hal qilish uchun yangi usullar va standartlar ishlab chiqish lozim.